

VII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining soni 6498 tani tashkil qildi.

2021- yil yanvar-iyunda yalpi hududiy mahsulotning 65,2 foizi (2020- yil yanvar-iyunda 68,4 foiz) kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2021- yil yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2037,7 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 22,7 foizi) yoki 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 112,9 foizni tashkil qildi;

-11001,8 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 100,1 foizni (qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,4 foizi) tashkil qildi.

-2832,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 41,1 foizi) o'zlashtirildi va 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,0 martani tashkil qildi;

-2173,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 78,7 foizi) bajarildi va 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 99,3 foizni tashkil qildi;


-avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,3 foizga (umumiyligi yuk aylanmasiga nisbatan 85,8 ulushi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,5 foizga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasiga nisbatan 97,4 ulushi) teng bo'ldi;

-chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 91,7 foizi yoki 6 205,1 mlrd. so'm (7,8 foizga kamayish kuzatildi) va xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 68,6 foiz ulushi yoki 4068,0 mlrd. so'mni tashkil qildi;

-39,0 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 39,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'ektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi


2021- yil yanvar-iyun oylarida (jamiga nisbatan foizda)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi quyidagicha

| | <i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm</i> | <i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i> |
|------------------------------------|--|--|
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 11001,8 | 81,6 |
| Sanoat | 2037,7 | 22,7 |
| Qurilish | 2173,4 | 78,7 |
| Chakana savdo | 6 205,1 | 91,7 |
| Xizmatlar | 4 068,0 | 68,6 |
| Eksport, mln. AQSh doll. | 39,0 | 39,9 |
| Import, mln. AQSh doll. | 66,6 | 59,6 |

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:



YaHM Sanoat Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar Qurilish Xizmatlar Savdo


■ 2020- yil yanvar-iyun

■ 2021- yil yanvar-iyun

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko‘rsatkichlari**

| | <i>O‘lchov birligi</i> | <i>2020- yil</i> | <i>2021- yil</i> | (+) |
|---|----------------------------|------------------|------------------|-------------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | <i>birlik</i> | 22326 | 30644 | 8318 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar | <i>birlik</i> | 2532 | 6498 | 3966 |
| YaHM | % | 68,4 | 65,2 | -3,2 |
| Sanoat | % | 29,1 | 22,7 | -6,4 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | % | 98,9 | 99,4 | 0,5 |
| Investitsiya | % | 16,6 | 41,1 | 24,5 |
| Qurilish | % | 86,1 | 78,7 | -7,4 |
| Savdo | % | 92,9 | 91,7 | -1,2 |
| Xizmatlar | % | 70,2 | 68,6 | -1,6 |
| Yuk tashish | % | 87,3 | 84,8 | -2,5 |
| Yuk aylanmasi | % | 90,1 | 85,8 | -4,3 |
| Yo‘lovchi tashish | % | 96,5 | 95,5 | -1,0 |
| Yo‘lovchi aylanmasi | % | 97,6 | 97,4 | -0,2 |
| Eksport | % | 49,7 | 39,8 | -9,9 |
| Import | % | 46,9 | 59,6 | 12,7 |


**2021- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi, foizda

2021- yil yanvar-iyun


2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 65,2 foizni tashkil qildi (2020 yilning yanvar-iyunida 68,4 foiz). YaHM tarkibida ko'payishi yirik korxonalar ulushi tushishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so‘mda)


Hududlar bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (400,0 mlrd. so‘m), Chiroqchi tumani (261,1 mlrd. so‘m), Yakkabog‘ tumani (223,8 mlrd. so‘m), Koson tumani (183,7 mlrd. so‘m), Shahrисabz tumani (144,1 mlrd. so‘m) va Kitob tumani (130,8 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi. Dehqонобод tumani (38,1 mlrd. so‘m), Kasbi tumani (39,6 mlrd. so‘m) va Muborak tumani (50,1 mlrd. so‘m) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2021- yil yanvar-iyunda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kitob (98,1 foiz), Yakkabog‘ (85,4 foiz), Chiroqchi (83,5 foiz), Shahrисabz (81,0 foiz) tumanlari va Shahrисabz shahri (80,2 foiz) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga Nishon (4,2 foiz), G’uzor (4,7 foiz), Kasbi (6,6 foiz), Dehqонобод (14,2 foiz) va Qarshi (17,7 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2021- yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat mahsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo‘yicha ko‘proq qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hajmi Chiroqchi (1626,8 mlrd. so‘m), Koson (993,9 mlrd. so‘m), Kitob (936,1 mlrd. so‘m), Qamashi (919,2 mlrd. so‘m), Yakkabog’ (821,2 mlrd. so‘m) va Kasbi (784,3 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qarshi (92,2 mlrd. so‘m) va Shahrисabz (100,7 mlrd. so‘m) shaharlariда qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hajmi past bo‘lib qolmoqda.

**2021- yil yanvar-iyunda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o‘rmon
va baliq xo‘jaligi hajmi va o‘sish sur’ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (1 296,5 mlrd. so'm), Koson (679,9 mlrd. so'm), Chiroqchi (670,4 mlrd. so'm) va Shahrisabz shaxri (545,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shahrisabz (204,7 mlrd. so'm), Muborak (204,8 mlrd. so'm) va Qarshi (216,5 mlrd. so'm) tumanlarida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

2021- yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



2021- yil yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati



**2021- yil yanvar-iyunda kichik tadbirdorlikning iqtisodiyot tarmoqlardagi hududlar
bo‘yicha ulushi, foizda**

| | <i>Sanoat</i> | <i>Qishlog, o‘rmon va baliq xo‘jaligi</i> | <i>Investitsiya</i> | <i>Qurilish</i> | <i>Chakana savdo</i> | <i>Xizmatlar</i> |
|---------------------------------|---------------|---|---------------------|-----------------|--------------------------|------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 22,7 | 99,4 | 41,1 | 78,7 | 91,7 | 68,6 |
| Qarshi sh. | 29,1 | 98,0 | 14,6 | 74,7 | 75,7 | 42,5 |
| Shahrisabz sh. | 80,2 | 99,7 | 83,1 | 59,1 | 98,9 | 77,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| G’uzor | 4,7 | 98,6 | 4,9 | 56,8 | 97,9 | 77,8 |
| Dehqonobod | 14,2 | 98,4 | 77,4 | 100,0 | 99,1 | 84,3 |
| Qamashi | 51,9 | 99,4 | 89,9 | 100,0 | 98,4 | 80,6 |
| Qarshi | 17,7 | 99,1 | 80,6 | 100,0 | 95,5 | 77,3 |
| Koson | 44,7 | 99,9 | 90,1 | 91,6 | 98,8 | 84,6 |
| Kitob | 98,1 | 99,4 | 60,7 | 100,0 | 95,3 | 82,7 |
| Mirishkor | 26,4 | 99,6 | 88,4 | 100,0 | 98,8 | 89,9 |
| Muborak | 21,0 | 99,1 | 54,1 | 40,4 | 97,2 | 76,4 |
| Nishon | 4,2 | 99,3 | 43,9 | 99,9 | 98,6 | 81,7 |
| Kasbi | 6,6 | 99,6 | 77,1 | 99,8 | 98,5 | 85,7 |
| Chiroqchi | 83,5 | 99,8 | 89,8 | 83,4 | 94,4 | 76,7 |
| Shahrisabz | 81,0 | 99,6 | 79,3 | 99,9 | 91,4 | 80,9 |
| Yakkabog‘ | 85,4 | 99,2 | 90,2 | 82,8 | 97,5 | 80,3 |

Hududlar bo‘yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (98,1 foiz), Yakkabog‘ (85,4 foiz), Chiroqchi (83,5 foiz) va Shahrisabz (81,0 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Yakkabog‘ (90,2 foiz), Koson (90,1 foiz), Qamashi (89,9 foiz), Chiroqchi (89,8 foiz) va Mirishkor (88,4 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Qurilish sohasida Dehqonobod, Qamashi, Qarshi, Kitob, Mirishkor tumanlarida mos ravishda (100,0 foiz), Nishon va Shahrisabz tumanlarida mos ravishda (99,9 foiz) va Kasbi (99,8 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Chakana savdoda Dehqonobod (99,1 foiz), Shahrisabz shahri (98,9 foiz), Koson va Mirishkor mos ravishda (98,8 foiz), Nishon (98,6 foiz) va Kasbi (98,5 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasida Mirishkor (89,9 foiz), Kasbi (85,7 foiz), Koson (84,6 foiz) va Dehqonobod (84,3 foiz) tumanlarini tashkil etadi.

Joriy davrda mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvalar o'tkazildi. Qurilish sohasida respondentlarning 58,0 foiz qulay, 33,3 foiz qoniqarli deb hisoblashini, savdo sohasida – 50,2 foiz qulay va 42,4 foiz qoniqarli, mos ravishda xizmatlar sohasida – 43,5 foiz va 48,9 foiz, sanoatda – 45,1 foiz va 47,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 36,3 foiz va 48,2 foiz qoniqarli tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 7,8 foiz, qurilishda – 8,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 15,5 foiz, xizmatlarda – 7,7 foiz va savdoda – 7,4 foizni tashkil qildi.

Kichik tadbirdorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash 2021- yil I-chorak uchun, foizda



Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida qulay 64,8 foiz, qoniqarli 25,4 foiz, sanoat korxonalari qulay 72,5 foiz, qoniqarli 21,8 foizi, savdo – qulay 69,7 foiz, qoniqarli 24,9 foiz, xizmatlarda qulay 73,5 foiz, qoniqarli 21,1 foiz va qurilish tarmog'ida qulay 76,8 foiz, 17,4 foiz qoniqarli bo'lishi kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishlar
istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligi iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.